

## ABDULLA ORIPOV SHE'RLARINING QORAQALPOQCHA TARJIMALARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING USLUBIY-SEMANTIK TAHLILI

*Allambergenov Davronbek Maxsudovich,  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistranti  
[davronbekallambergenoff@gmail.com](mailto:davronbekallambergenoff@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Abdulla Oripov she'rlarining qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan namunalari asosida frazeologik birliklar lingvistik tahlil qilinadi. Tarjimada poetik ifoda vositalarini saqlab qolishda iboralarning to'g'ri tarjima qilinishi muhim omil sanaladi. Shu nuqtayi nazardan maqolada A.Oripov ijodida uchraydigan frazeologizmlar va ularning qoraqalpoqcha tarjimalardagi ko'rinishlari o'zaro qiyosiy tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar.** Frazeologizm, tarjima, uslubiy tahlil, semantik xususiyat, poetik ifoda, ekvivalent, badiiy tarjima, ibora.

## ABDULLA ORİPOV ŞİİRLERİNİN KARAKALPAKÇA ÇEVİRİLERİ DEYİMSEL BİRİMLERİNİN METODOLOJİK-ANLAMSAL İNCELEMESİ

*Allambergenov Davronbek Maxsudovich,  
Ajiniyaz Nukus devlet pedagoji enstitüsü yüksek lisans öğrencisi*

**Özet.** Bu makale, Abdullah Oripov'un Karakalpak'a çevrilmiş şiir örneklerine dayanarak deyimsel birimlerin dilbilimsel bir analizini gerçekleştirecektir. İfadelerin doğru çevirisi, çeviride şürsel ifade araçlarının korunmasında önemli bir faktör olarak kabul edilir. Aynı noktada İnceleme makalesi A.Oripov'un çalışmalarında bulunan deyimler ve kin çevirilerindeki görünümleri karşılaştırmalı bir şekilde analiz edilmiştir.

**Anahtar kelimeler.** Deyimbilimi, çeviri, metodolojik analiz, anlamsal özellik, şairsel anlatım, eşdeğer, sanatsal çeviri, deyim.

## МЕТОДОЛОГИКО-СМЫСЛОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ДЕКЛАРАТИВНЫХ ЕДИНИЦ КАРКАЛПАКСКИХ ПЕРЕВОДОВ ПОЭТИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АБДУЛЛА ОРИПОВА

*Алламбергенов Давронбек Максудович,  
Магистрант Нукусского государственного педагогического  
института имени Аджинияза*

**Аннотация.** В данной статье будет проведен лингвистический анализ фразеологизмов на основе переведенных на каракалпакский язык образцов стихов Абдулла Арипова. При сохранении средств поэтической выразительности в переводе важным фактором является правильный перевод фраз. В связи с этим в статье Фразеологизмы, встречающиеся в творчестве А.Арипова и их проявления в каракалпакских переводах, подвергаются взаимному сравнительному анализу.

**Ключевые слова.** Фразеологизм, перевод, методологический анализ, семантический признак, поэтическое выражение, эквивалент, художественный перевод, фраза.

## METHODOLOGICAL AND SEMANTIC STUDY OF DECLARATIVE UNITS OF KARKALPAK TRANSLATIONS OF POETIC WORKS BY ABDULLA ORIPOV

*Allambergenov Davronbek Maxsudovich,  
master of the Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz*

**Annotation.** This article will carry out a linguistic analysis of phraseological units based on samples of poems by Abdullah Oripov translated into Karakalpak. The correct translation of phrases is considered an important factor in maintaining the means of poetic expression in translation in the same point review article. The phraseologisms found in A.Oripov's work and their appearances in scabbard translations are analyzed in a comparative way.

**Keywords.** Phraseologism, translation, methodological analysis, semantic feature, poetic expression, equivalent, artistic translation, phrase.

Bilamizki, shoirlar inson qalbining tarjimoni sifatida qalam tebratishadi. Ular so'zlar orqali inson his-tuyg'ularini, ichki kechinmalarini va hayotning nozik jihatlarini mohirlik bilan ifodalaydilar. Abdulla Oripov she'riyati tilshunoslik va adabiyotshunoslikda alohida ahamiyatga ega. Uning ijodi nafaqat badiiy jihatdan, balki lingvistik xususiyatlari bilan ham muhim o'ringa, katta salmoqqa ega hisoblanadi. Shoir she'rleridagi ohangdorlik, ta'sirchanlik, tasviriy vositalarning xalqona ifodasi va inson ruhiyatiga ta'sir qilishida ko'plab til vositalari qatori frazeologizmlarning ham o'rni e'tiborga molik. Frazeologizmlar tilimizda doimiy ishlatiladigan, tarkibiy qismlari o'zgarmaydigan va umumiy yaxlit ma'no kasb etadigan birliklardir. Ular fikrga ta'sirchanlik va badiiylik bag'ishlaydi. Ular ko'chma ma'noda ishlatilib, badiiy tasvir vositasida emotsiyonallik, ekspressivlik xususiyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, frazeologizmlar faqat inson ongiga emas, balki his-tuyg'ulariga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Frazeologizmlar tarkibida qancha so'z bo'lishiga qaramasdan, ular yagona umumiy ma'no ifodalaydi. Frazeologizmlarni aksariyat hollarda to'g'ridan to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydi. Uni so'zma-so'z tarjima qilish ifodalanayotgan ma'noni butunlay o'zgartirib yuboradi. "Frazeologizmlar milliylikka asoslangani uchun ularni tarjima qilish hamisha qiyinchilik tug'dirib, ko'pincha muayyan muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Odatda, boshqa tilga ularning shakli emas, mazmuni ko'chadi" [3:89].

O'zbek va qoraqalpoq tillari o'rtasida o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, har bir tilning o'ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari bor. Iboralar tarjimasi nafaqat til bilimini rivojlantirishga, balki ikki xalqning madaniy va tarixiy aloqalarini tushunishga yordam beradi. "Har bir tilda o'zining milliy, madaniy xususiyatlariga ega

bo'lgan frazeologik birliklar mavjud. Frazeologik birliklarning tarjimasi milliy, madaniy xususiyatiga chuqur e'tibor bergan holda qilinishi lozim. She'riy matnlarda iboralar ko'pincha kuchli emotsiyonallik ta'sir beradi. Tarjimada bu ta'sirni yo'qotmaslik muhim" [4:155]. Iboralar tarjimasi she'rdagi umumiy mazmun va kontekstga mos tushishi lozim. Aks holda, iboraning ma'nosini yo'qolib yoki noto'g'ri tushunilishi mumkin.

A.Oripov qalamiga mansub "Ka'batulloh" she'ridagi quyidagi parchada "biri ikki bo'lmoq" iborasi ishlatilgan va biz buni tarjimada ham to'g'ri mazmun ifodalayotganini ko'rishimiz mumkin. Biroq misra boshidagi "hanuz" so'zi tarjimasida xatolik bor. Asliyatda haligacha ma'nosini berayotgan so'z tarjimada hech bir deya ishlatilmogda. Asliyatda:

Hanuz biri ikki bo'lman eldan,  
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.  
Bag'ri xun, toleyi kulmagan eldan,  
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh[1:2]

Tarjimada:  
Ҳеши бир бири еки болмаган елден,  
Келдим најсат излеп, я Каъбатуллах.  
Баур қан, ығбалы күлмеген елден.  
Келдим најсат излеп, я Каъбатуллах[5:60]

Shuningdek, ikkinchi misradagi madad bergil birikmasi najot izlab ko'rinishida berilgan. Tarjima variantida ma'no biroz o'zgargan, biroq frazeologizm o'z badiiy vazifasini to'g'ri bajargan.

Shoir "Payg'ambar" she'rida ham frazeologizmlardan unumli foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Asliyatda:

*Haq deb nina bilan tog'larni qazdim,  
Bandman, rost yo'llarga gohida ozdim[1:4].*

Tarjimada:

*Хақ дег ийне менен құдықтар қаздыым,  
Бендемен гәхинде жолынан аздым[5:64].*

Igna bilan tog' qazish birikmasi tarjimada umuman boshqacha qilib berilgan. Ya'ni quduq qazish shaklida. Yana keyingi qatordagi bandman so'zi esa bandaman deya noto'g'ri talqin qilingan. Lekin yo'ldan ozish iborasi mazmunan saqlangan.

Asliyatda:

*Ka'ba qopqasida turgan ey posbon,  
Avval onalarning ochgin yo'llarin[1:6].*

Tarjimada:

*Каъба қапысында турған, әй пасбан,  
Әүел аналардың ашқыл жолларын[5:66].*

Yuqoridagi "Avval onalarning ochgin yo'llarin" misrasi tarjimada to'g'ri aks etgan.

Biroq "Ka'ba qopqasida turgan ey posbon" misrasidagi qopqasi so'zi tarjimada eshigi deya berilgan. Vaholanki, qopqa so'zi darvoza ma'nosida ishlataladi. Lekin bizningcha, tarjimon ohangni saqlash maqsadida qopqa so'zini qapi shaklida qoraqalpoq tiliga o'girgan.

Asliyatda:

*Дунёдан тўйған бир бағриқон одам,  
Дашту саҳроларга олиб кетди бош[2:29].*

Tarjimada:

*Дунъядан тойған бир бауыры қан адам,  
Қўмлы саҳраларга бас алып кетти[5:100].*

Bu yerda "dunyodan to'ygan" ifodasi dunyodagi barcha narsalardan charchagan, undan hafsalasi pir bo'lgan ma'nolarini beradi. Bu so'z nafaqat tashqi omillar, balki ichki ruhiy holatni ham ifodalaydi. Dasht-u sahrolarga olib ketdi bosh misrasi qumli sahrolarga bosh olib ketdi mazmunida tarjima qilingan. Dasht so'zi qumli deya berilganligini yuqorida ko'rishimiz mumkin. Asliyatda dasht va sahro deya alohida ma'noda ifodalangan. She'rning ohangdorligini va badiyiligin saqlash maqsadida tarjimada qumli sahrolar tarzida berilganligini ko'rishimiz mumkin. "Bosh olib ketmoq" iborasi tarjimada to'g'ri ifodalangan. She'rdagi mazmun va g'oya ikki tilda ham bir xil. Shuning uchun, tarjimaning maqsadi to'liq amalga oshirilgan va she'rning asosiy xususiyatlarini saqlagan deb hisoblaymiz.

Asliyatda:

*Мол-дунё дегани дилни юпатмас,  
Сук, хасад доимо кўзин тиккайдир[2:29].*

Tarjimada:

*Мал-дунъя дегени жанды жубатлас,  
Сук нэзер, қызганыйи көзин тигежсақ[5:100].*

Mazkur she'rning birinchi misrasi tarjimada to'g'ri berilgan. Bu yerda shoir boylik, dunyo ne'matlari odamning chin ko'ngil osoyishtaligini ta'minlamasligini aytyapti. Ya'ni, mol-dunyo ko'p bo'lsa ham, bu baxt yoki ichki osoyishtalik degani emas. Tarjimada dilni yupatmas ifodasi jonni yupatmaydi, ko'ngilni tinch qilmaydi degan ma'noda asliyatdagি mazmunni yetkazib bera olgan. "Suq, hasad doimo ko'zin tikkaydir" misrasidagi suq so'zi tarjimada suq nazar shaklida mazmunan to'g'ri ifodalangan. Lekin doimo ko'zin tikkaydir jumlesi tarjimada ko'zini tikmoqchi deya xato berilganligini ko'rishimiz mumkin. Asliyatda har doim ma'nosi berilgan bo'lsa tarjimada kelasi zamon ko'rinishida qo'llangan.

Shoir she'rlaridagi ko'plab frazeologik birliklar qoraqalpoqcha tarjimalarda asliga yaqin tarzda yoki mos ekvivalentlar bilan berilgan. Bu esa tarjimonlarning nafaqat til, balki, she'rdagi

mohiyatni ham chuqur anglab tarjima qilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ayrim frazeologizmlarning tarjimasida ma’noviy siljishlar yoki milliy koloritning yo‘qolishi kuzatiladi. Bu holat tarjimada frazeologizmlarni yetarlicha chuqur tahlil qilish va ularni kontekstga mos holatda tarjima qilish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Abdulla Oripov ijodining qoraqalpoq tiliga tarjimalarida frazeologizmlarning saqlanishi va badiiy ifodalarning uzatilishi ikki tilda ham badiiy tafakkur uyg‘unligini namoyon eta oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Oripov A. Haj daftari., – Toshkent:1992. B.– 2,4,6.
2. Oripov A. Quyosh bekti., – Toshkent:2010. B.– 29.
3. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari., T: 2014. B.– 89.
4. G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi., Toshkent. 2012. B.– 155.
5. Арипов А. Ағар даря., – Нокис: Билим, 2021. B.– 60,64,66,100.